



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

SHAYBONIYLARNING O'ZBEK DAVLATCHILIGIDA TUTGAN O'RNI VA RO'LI

Qurbanova Gulnigor Zafarqizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti tarix fakulteti 4 - bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda o'rta asrlardagi vatanimiz tarixida yangi bosqich, davr sifatida Shayboniylar sulolasining davlat bosharuviga kelishi, va Movaraunnahrda hukmronligi o'rnatilishi to'g'risidagi fikrlar tarixiy manbaalar va adabiyotlar yordamida tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: Sulola, davlat, hudud, Xuroson, Shayboniyxon, madaniyat, ruboiy, boshqaruv, mudofaa, sarkarda.

Yurtimizda Temuriylar hukmronligi davom etayotgan bir vaqtta Dashti qipchoq hududida yana bir kuch yetilayotgan edi. Bu Jo'ji naslidan bo'lgan Shaybon avlodidan bo'l mish Muhammad Shayboniyxon edi. Aslini olganda Shayboniylar Oltin O'rda namoyondalari sifatida Movaraunnahrni sobiq Chig'atoy ulusining tarkibiy qismi deb bilib, unga nisbatan o'z davolarining xaqli ekanliklariga ishonardilar va boshqalarni ham ishontirishga urinardilar. Shu manoda Muhammad Shayboniyxonning quyidagi so'zlari qiziqish uyg'otadi: "Agar Temurbek avlodlaridan ba'zi mulklarni tortib olgan bo'lsak ham, mulkparastlik va kichik mamlakatlarga qanoat qilmasligimizdan emas, balki taqdir xukmiga ko'ra shunday bo'ldi. Ze'ro, qazo merosiy mulkni yana bizning qulimizga va ixtiyorimizga qaytishini taqazo etadi".¹

Shunday qilib Movarounnahrdagi qulay vaziyatdan foydalangan Shayboniyxon siyosiy vaziyatni puxta o'rganadi, mamlakatdagi inqiroz, ichki ziddiyatdan mohirona foydalanadi. Bir necha bor Temuriylarning o'zaro toju taxt uchun kurashlarida yordam ko'rsatadi. Bu omillarning barchasi kelgusida Shayboniyxonning zafarli yurishida o'z hissasini qo'shadi Ayni damda Movarounnahrdi hukmron shahzodalarning kaltabin siyosati ham bunga keng yo'l beradi. Boburning takidlashicha " 1394- yil Movarounnahr hukmdori temuriy Sulton Axmad vafot etadi. Bobur tabiri bilan aytganda "beklar ittifoq qilib" marhumning ukasi Sulton

¹ Muhammad Ro'zbexon. "Mehmonnamoyi Buxoro". 72 bet.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mahmudni taxtga o'tqazadilar.² Uning hukmdorligi ham uzoqqa bormay 1495- yil Samarqand taxtini o'g'li Boysung'ur egallaydi. Movaraunnahrda vaziyat eng keskinlashgan davr ayni shu davr desak bo'ladi.

Kamoliddin Binoiy shu munosabat bilan, temuriylar o'rtasida qarama-qarshilik ortib borayotganidan xabar topgan Shayboniyxon bu sulolaning umri tez orada bitishini bildi deb yozgandi.³ Movaraunnahrda 1501-yilda Shayboniylar davlatiga asos solindi. Bu sulola mamlaktni birlashtirdi xalq Shayboniylar davrida birmuncha tinch yashaydi. Shayboniylar davrida A. Temur tuzgan hududlar birmuncha birlashtiriladi. Xususan Xuroson, Movaraunnahr,

Xorazm, Eronning bir qismi birlashtirilib yagona davlat holiga keltirildi, bu Shayboniyxonning davlatimiz millatimiz oldida ko'rsatgan eng katta hizmatidir. Shayboniyxon davlatimiz tarixida yurtimizni, Eron safaviylaring muqarrar hujumidan asrab qolgan davlat arbobi hisoblanadi. Parchalanib ketgan hududlar qayta birlashtirilib yagona davlat ostida birlashtirilib ilm fan sezilarli rivojlantirildi. Shayboniyxonning o'zi ham o'qimishli bo'lgan. O'zidan Samarqand va Buxoroni madh etgan ruboiylar yozib qoldirgan. Devonidan joy olgan g'azallarida ko'p bor bu shaharlarni tilga olgan. Shayboniyxon vafotidan so'ng davlat sulola vakillari tomidan 100 yil davomida boshqarildi. Bu yillar yurtimiz tarixida o'zining o'rniiga ega davrlar hisoblanadi. Samarqandda Shayboniyxon qabri hozirgacha saqlanib turibdi. Maqbara Shayboniylar davrida ham qayta tamirlangan.

Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod qilishga harakat qildilar. Butun asr davomida shu davrning barcha muhandislik imkoniyatlarini va jamiyatning ma'naviyat va madaniyati darajasiga mos ravishda ko'plab binolar, me'moriy va madaniyati darajasiga mos ravishda ko'plab binolar, me'moriy majmular, inshootlar bunyod etildi. Ularning orasida Buxorodagi Mir Arab, Abdullaxon, Qulbobo Ko'kaldosh, Nodir devonbegi, Ernazar elchi, Samarqandda qurilgan Shayboniyxon, Toshkentta qurilgan Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari me'morchiligidan yorqin namunalari hisoblanadi. Baroqxon madrasasi Shayboniy hukmdor Suyunchxo'janing o'g'li Baroqxon tomonidan qurildi. Madrasa gumbazining balandligi 22 metrni tashkil etadi. Bu madrasada yurtimizning mustaqillik yillarida ham katta ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

² Boburnoma 23-bet.

³ "Mehmonnamoyi Buxoro". 74, 116-177 - betlar.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shayboniylar ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazdilar. Islohot o'tkazilishiga amaldorlar guruhini shakllantirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Islohotga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Har bir mahallada maktab ochildi. ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolalarga 6 yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. Madrasa ta'limi uch bosqichli bo'lib, uning har bir bosqichida 7 yildan o'qilgan va o'quv jarayoni 21 yil davom etgan. Xulosa qiladigan bo'lsak Shayboniylar davrida Temuriylar davrida shakllangan madaniyat davom ettirildi, hechqanday yangilik kiritilmadi. Tibbiyot, matematika sohalari rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Ro'zbexon. "Mehmonnamoyi Buxoro". 72 b - varaq.
2. Boburnoma 23-bet.
3. Muhammad Ro'zbexon ."Mehmonnamoyi Buxoro". 74, 116-177 - betlar.
4. Azamat Ziyo . O'zbek davlatchiligi tarixi. 235-238- betlar.